



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 267-275 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

INNOVATSION FAOLIYATNING RIVOJLANISHIDA SOLIQ SIYOSATINING O'RNI



Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

“Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida assistenti

Email: Saidmurodov199411@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq siyosatining o'rni muhim ekanligi atroflicha ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari innovatsion faoliyatini rivojlantirishda soliqlarning ahamiyati yoritib berilgan. Innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi davlat siyosati chora-tadbirlarini ishlab chiqishning muhim jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, soliq, soliq imtiyozlari innovatsion faoliyat, biznes muhit, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion infratuzilma, milliy innovatsiya tizimi, soliq siyosati, soliq stavkasi.

РОЛЬ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Саидмуродов Феруз Содикжон угли.

экономики ассистент кафедры «Финансы, налоги и банковское дело» Самаркандский филиал Ташкентского государственного университета

Email : Saidmurodov199411@gmail.com

Аннотация: В статье подробно рассматривается роль налоговой политики в обеспечении инновационного развития. Также подчеркивается значение налогов в развитии инновационной деятельности хозяйственных субъектов. Изучены важные аспекты разработки мер государственной политики, влияющих на инновационное развитие.

Ключевые слова: инновации, налог, налоговые льготы, инновационная деятельность, бизнес-среда, инновационное предпринимательство, инновационная инфраструктура, национальная инновационная система, налоговая политика, налоговая ставка.

AN EFFECTIVE TAX POLICY IS THE MAIN CONDITION FOR THE TRANSITION TO INNOVATIVE DEVELOPMENT

Saidmurodov Feruz Sodikjon ugli

assistant department of "Finance, tax and banking" Samarkand branch

Tashkent state university of economics
Email: Saidmurodov199411@gmail.com

Abstract: In the article, the role of tax policy in ensuring innovative development is considered in detail. Also, the importance of taxes in the development of innovative activities of economic entities is highlighted. Important aspects of the development of state policy measures affecting innovative development have been studied.

Key words: innovation, tax, tax benefits, innovative activity, business environment, innovative entrepreneurship, innovative infrastructure, national innovation system, tax policy, tax rate.

1. Kirish.

Dunyo bo'yicha iste'molchilar uchun kurash jarayoni avj olgan hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi ta'minlash eng avvalo mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion faolligini oshirishga bog'liq. Chunki bugungi kun talabiga javob beradigan tovar va xizmatlar yaratishdagi innovatsiya jarayonlariga to'siq bo'luvchi sababni soliqqa tortish mexanizmlarining yanada takomillashtirilmaganligi sababi bilan izohlash mumkin. Soliq siyosati-bu keng ko'lamlı vositalar yordamida xukumat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishni anglatadi.

Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq imtiyozlarining roli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yilni "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi, hamda mazkur yilga bag'ishlangan alohida dasturning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'lida katta ishlar boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "...innovatsiya-bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" [1]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritish sub'ektlari raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri mazkur sub'ektlarda innovatsion faollikni oshirish hisoblanadi. Rivojlangan, bozor iqtisodiyotini bosib o'tgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar bozor iqtisodiyotida faol o'zgarishlarni amalga oshirish va ishlab shiqarish samaradorligini ko'tarish vazifalarini bajarib, kushli ishlab shiqarish salohiyatini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab shiqarish korxonaları raqobatbardoshligi yangi texnologiyalar, tovar va xizmatlarni joriy etish yo'li bilai shakllanib boradi. Shuning ushun ham korxonalar va tashkilotlarda innovatsiyalarni samarali joriy etishga yo'naltirilgan millii ilmiy-texnik siyosat olib borish zarur bo'ladi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Klassik iqtisodiy nazariya asoschilaridan biri A. Smit yangi texnologiyalarga, ya'ni innovatsiyalar yordamida samarali raqobat mexanizmiga o'tish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlagan [2]. Agar bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning investitsiyalarni jalb qilib, ularni yangi texnika, texnologiya yaratishga yo'naltirish, innovatsiyalar asosida o'zining bozordagi mavqeini mustahkamlash orqali raqobatdosh bo'lishini, innovatsiyalardan yangi bozorlar ochish

uchun kurashda amaliy omil sifatida foydalanayotganini hisobga olsak, uning ushbu ta'limoti hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Professor Sh.Toshmatovning fikricha soliq siyosatida ko'proq kichik tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish va korxonalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda[3]. Yuqoridagi amalga oshirilgan tadbirlar kichik biznes sub'ektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi keskin oshishiga va korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning o'sishiga erishildi hamda korxonaning investitsiyaga yo'naltiradigan mablag'larini ko'paytirdi. Bizning fikrimizcha, bunday choralar korxonalarining investitsion faolligini oshirishda samara berayotgan bo'lsa, biroq ular xo'jalik sub'ektlarning innovatsion, ilmiy-tadqiqot faoliyatining jadallashishiga turtki bergani yo'q. Mahalliy ishlab chiqaruvlar asosan soliq stavkalarining pasaytirilishi va soliq imtiyozlari berilishini natijasida iqtisod qilingan mablag'lardan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mahalliyashtirish, yangi texnologik uskuna, xomashyo xarid qilish yoki aylanma mablag'larni ko'paytirish maqsadida foydalanmoqdalar.

Iqtisodiy fanda "innovatsiya"ning mohiyatiga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter: "Innovatsiya – bu mavjud jarayonga yangicha qarash, yondashuv bo'lib, zamonaviy kashfiyot va ishlanmani yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ishlab chiqarishni ma'lum bo'lgan qandaydir jarayonga qo'llashdir [4]" , -deya ta'kidlaydi.

Y.Shumpeter innovatsion rivojlanishni amaliyotga joriy etishda uning quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshirish lozim deb hisoblaydi:

- 1) muomalaga yangi innovatsion mahsulotlarni kiritish;
- 2) ishlab chiqarishning yangi usullarini joriy etish;
- 3) yangi bozorlarni yaratish: yangi inonovatsion loyihalarni xomashyo va resurslar bilan ta'minlash;
- 4) sanoat ishlab chiqarish bo'g'inlarini tashkil etish va ishga tushirish [5].

Y.Shumpeterning innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda amaliyotga joriy etilayotgan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari e'tiborga olinmagan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish va ishga tushirishda davlatning ishtiroki qayd etilmagan.

Fikrimizcha, hozirgi paytda, ayniqsa o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda innovatsion loyihlarni joriy etishda davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi (masalan, soliq imtiyozlari va moliyaviy subvensiyalar orqali) juda muhim hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot 1920 yillarning oxiri 1930 yillarning boshlarida iqtisodiy fan sifatida vujudga keldi. N.Kondratev ushbu jarayon xususida to'xtalib, texnika sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar shubhasiz iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlagan edi [6]. Uning fikriga ko'ra, buning asosiy shartlaridan biri mamlakatda innovatsion "massa"ning to'planib qolganligi va iqtisodiyotda uni joriy etishning iqtisodiy shart-sharoitlari vujudga kelganligidir. Masalan, XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshlarida shakllanib ulgurgan iqtisodiy kashfiyotlar XVIII asrning oxirida, industrial revolyusiya arafasida keng qo'llanildi.

Innovatsiyaning mazmuniga yanayam kengroq qaraydigan bo'lsak, uning lug'aviy ma'nosi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, ixtiro

so'zlarini anglatadi [7]. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyaga rasmiy doirada ham ta'riflar berilgan. Ayniqsa, ularning ichida Oslo hukumatining innovatsiyaga bergan ta'rihi alohida e'tirof etiladi, unga ko'ra: "Innovatsiya - bu yangi g'oyalarni yaratish asnosida bozordagi talabga qarab zamonaviy va sifatli tovarlarni ishlab chiqarish orqali raqobatchilaridan o'zib ketishdir [8]", -deya qayd etiladi.

Ta'kidlaganimizdek "innovatsiya", "innovatsion rivojlanish"ga berilgan iqtisodiy ta'riflar aynan bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, rossiyalik iqtisodchi M. Gershman: "Innovatsiya-bu yangilik, kashfiyot va ixtirolar orqali yangi mahsulot, xizmat yaratish va jarayonni vujudga keltirishdir. Innovatsion faoliyat natijasida novatsiya (lotincha "novation") ya'ni o'zgarish, yangilanish jarayoni sodir bo'ladi. Novatsiya – bu oldin amaliyotda bo'lmagan yangi ixtiro, yangi xodisa, yangi holat bo'lib ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usuli sifatida yuzaga chiqadi[9]", -deya ta'kidlaydi.

"Innovatsiya – insonning aql-zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan, ayni vaqtda, iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgan intellektual mulk ko'rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g'oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir[10]". Agar innovatsion g'oya yaratilsa-da, ishlab chiqarishga tatbiq etilmasa, o'zining iqtisodiy nafliligini isbotlamasa, innovatsiya hisoblanmaydi. Yaratilgan innovatsiyalar tijoratlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb hisoblash mumkin

Fikrimizcha, "Innovatsiya – bu kapitalni yangi texnika, texnologiyaga, ishlab chiqarishga, mehnatni yangicha tashkil etish, boshqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga sarflash natijasida yangidan olingan moddiy hamda nomoddiy ne'matlardir".

O'zbek tilining izohli lug'atida "innovatsiya" atamasiga so'zma-so'z kiritilgan yangilik, ixtiro, keng ma'noda esa texnika va texnologiyalarning yangi turlari (avlodlari) ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar, (2) ilg'or texnika va texnologiyalar, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi, (3) muayyan tilda, asosan, uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari) deya ta'rif beriladi [11].

Fikrimizcha, har qanday innovatsion faoliyat zamirida avvalombor kishilarning iqtisodiy manfaatdorligi yotibdi, so'ngra esa undan insonlar o'z hayotlarini yanada qulay va yaxshilashga bo'lgan imkoniyat paydo bo'ladi. Ushbu imkoniyat kishilarni cheksiz ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali va unumli foydalanish imkoniyatini beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida innovatsiya, soliqlar va soliqqa tortishga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o'rganilgan. Mavzuni o'rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar

Xalqaro standartlarga muvofiq, innovatsiya bozorga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo'llaniladigan yangi yoki

takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga yangi yondashuv ko'rinishida mujassamlangan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida ta'riflanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar mazkur sohaning o'zida, uni ishlab chiqarish, ta'minlash va iste'mol qilishda, ishchilarning xatti-harakatlaridagi yangilik hisoblanadi.. Innovatsiyalar har doim ham ixtiro va kashfiyotlarga asoslanmaydi. G'oyalarga asoslangan innovatsiyalar ham mavjud.

Innovatsiyalarni jahon amaliyotida qo'llaniladigan rag'batlantirish vositalarini ikki toifaga bo'lish mumkin:

- to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish;
- soliq imtiyozlar.

Ikkinchi toifa o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) soliq imtiyozi - ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlarining bir qismini daromad solig'i summasidan chegirib tashlash (summa soliq krediti stavkasi bilan belgilanadi);

b) qo'shimcha soliq imtiyozi - bazaviy davrga nisbatan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlarining ko'payishi uchun daromad solig'i summasidan chegirma;

c) qo'shimcha soliq imtiyozi - bazaviy davrga nisbatan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlarining ko'payishi uchun daromad solig'i summasidan chegirma;

d) ish haqi solig'i krediti — ilmiy xodimlarning ish haqi miqdoriga soliqlarni kamaytirish;

e) ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan bog'liq asosiy vositalarning jadal yeskirishi

f) investitsiya solig'i krediti — asbob-uskunalarni ishlatishning dastlabki yillarida uning qiymatining muhim qismini hisobdan chiqarish.

Fikrimizcha, o'z faoliyatiga doimiy ravishda innovatsiyalar, ya'ni yangiliklar, ixtirolar, yangi texnologiyalar, texnikalar, boshqarish va mehnatni tashkil etishga zamonaviy tizimlarni kiritib, amaliyotga tatbiq etib boradigan faol tadbirkorgina inqiroz domiga tushish va bankrot bo'lish xavfidan xoli bo'ladi. P.Drakerning ta'kidlashicha, "tadbirkorlarni innovatsion fikr yuritish bilan farqlashadi. Innovatsiyaga ega bo'lish tadbirkorlikning asosiy qurolidir" [12].


Innovatsion tadbirkorlik – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangi g'oyalarni tadqiq qilish va izlanish asosida yangilariga joriy etish jarayoni[13]. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotda innovatsion munosabatlarning sub'ektlariga intellektual jihatdan katta mas'uliyat va rick yuklanadi, ushbu mas'uliyat va rickni samarali bo'lishi uchun mamlakatda biznes muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar mavjud biznes muhitdan oqilona foydalangan innovatsion faoliyatni tashkil etadi, korxonalar biznes muhitning strategik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zining kelajak strategiyasini ishlab chiqadi, strategiya asosida korxonalar iqtisodiy-intellektual g'oyalarni realizatsiya qilish evaziga qo'shimcha foyda oladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlarga tayanib, mamlakatda biznes muhitinnovatsion tadbirkorlikka:

- korxonada innovatsion jarayonlarni joriy etish va mavjud zaxiralarni ishga tushirish;
- korxonada innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishga oid ichki va tashqi hamkorlar bilan shartnomalar tuzish;
- innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha moliyaviy hamkorlarni topish va venchur fondlari mablag'laridan foydalanish kabi qator imkoniyatlarni beradi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "faol tadbirkorlik" va "faol tadbirkor" tushunchalariga bergan ta'rifi diqqatga sazovor. Sh.M.Mirziyoev "Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv ucullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy faoliyatdir. Faol tadbirkor deganda, biz raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz" [14], deb ta'kidladi.



2-rasm. Innovatsion rivojlanishga ta'sir qiluvchi davlat siyosati chora-tadbirlarini ishlab chiqishdagi muammolar [15, 16]

Shu bilan birga, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar markazlariga qo'shma innovatsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida sanoat va qishloq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarida ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, startaplar va boshqa hamkorlar bilan innovatsion hamkorlikni rivojlantirish vazifasi yuklatilgan. Shuni ta'kidlashni lozimki, innovatsion jarayonlarni soliq rag'batlantirish masalalarini o'rganayotganda, olimlar 1-rasmda keltirilgan uchta umumiy muammoni qayd etishadi, davlat siyosatining muayyan chora-tadbirlarini ishlab chiquvchilar innovatsion rivojlanishga ta'sir ko'rsatishga urinishda duch keladilar.

Soliqlar va soliqqa tortishni takomillashtirish– innovatsion faoliyatni shakllantirish, tadbirkorlik va ishlab chiqarishni rivojlantirish negizida barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida yurtimizda keng miqyosdagi soliq islohotlari amalga oshirildi. Buning natijasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, davlat byudjetini to'ldirishni va zarur davlat xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan va shuningdek, aholi daromadlari o'sishini, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning yangi tarmoqlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan zamonaviy soliq tizimi yaratildi.

Bizningcha, mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosati nafaqat innovatsion

rivojlanishga balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan asosiy iqtisodiy dastaklardan biri hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda amal qilib turgan soliq stavkalari, soliq yuki milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va chet ellik investorlarning faoliyatiga tez ta'sir qiladigan muhim omillardan hisoblanadi. Agar iqtisodiyotda soliq stavkalari past, soliq yuki esa bosqichma-bosqich pasaytirib borilayotgan bo'lsa bunday sharoitda tadbirkorlikka keng yo'l ochiladi, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligi oshadi va bu omillar mamlakatda iqtisodiy faollikka, jadal sur'atlar bilan rivojlanishga tegishli shart-sharoit yaratadi. Yurtimizda olib borilayotgan oqilona makroiqtisodiy siyosat va uning eng ta'sirchan, muhim yo'nalishi bo'lgan soliqqa tortish masalalarida ham ustivorlik tovar va xizmat ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlik sub'ektlari manfaatiga berilmoqda. Oxirgi yillardagi soliq stavkalari bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni tahlil qiladigan bo'lsak quyidagilarga e'tibor beramiz (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda 1992 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovi stavkalarining o'zgarishi.¹

Soliq turlari	1992-2009 yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010 yilda o'rnatilgan stavkalar	2021 yilda o'rnatilgan stavkalar	2023 yilda o'rnatilgan stavkalar	Pasayish
Qo'shimcha qiymat solig'i	30 foiz	20 foiz	15 foiz	12 foiz	2,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i	45 foiz	9 foiz	15 foiz	15 foiz	3 barobar
Yuridik shaxslar uchun mulk solig'i	5 foiz	3,5 foiz	2 foiz	2 foiz	2,5 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	4 foiz	4 foiz	3,8 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	60 foizgacha	22 foizgacha	12 foiz	12 foiz	5,0 barobar
Yagona ijtimoiy to'lov	40 foiz	25 foiz	12 foiz	12 foiz	3,3 barobar

¹ Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Jadval ko'rsatadiki, tahlil uchun olingan davrlarda iste'mol talabi va tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha qiymat solig'i stavkasi 30 foizdan 20 foizga tushirildi va 1,5 barobarga pasaytirildi. Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yalpi tushumning 2005 yildagi 15,2 foizdan 5 foizdan 3,5 foizga, 2023 yilda 4 foizga tushirildi va 3.8 barobarga kamaytirildi. Mustaqillik yillarida yuridik shaxslar daromad solig'i stavkasining pasaytirilishi korxonalar va tashkilotlarning oborot mablag'ini to'ldirishga, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ijobiy xizmat qiladi.

Muayyan soliq turi stavkasining pasayishi alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, yagona ijtimoiy to'lov, jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarining kamayishi ishlaydigan ishchi-xodimlar va aholi daromadlarining muttasil oshib borishiga hamda ularni yanada kuchli ijtimoiy muhofaza qilishga xizmat qiladi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday samarali soliq siyosati natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyoriga majburiy tarzda to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning qoldirilganligi ularga davlat tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va ularni qo'llab-quvvatlanishning aniq ko'rinishidir.

5. Xulosa va takliflar

Innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq siyosatining ahamiyati yuqori sanaladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan muhim ustuvor yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar, ya'ni fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarishning real sektori, mudofaa sohasida tajriba-konstruktorlik ishlari, atrof muhitni muhofaza qilish va ekologiya sohasidagi tadqiqotlarni barcha turdagi soliqlar va yig'imlardan ozod qilish lozim. Ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan innovatsion faoliyatni soliqlar yordamida sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalarga imtiyozlar tizimini qo'llash zarur. Ekspertizadan o'tgan yuqori samarali investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun va import qilinadigan jihozlar, uskunalar, materiallar, litsenziyalar, nou-xaularni qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona to'lovlaridan ozod qilish yoki bojlarni kamaytirish innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Innovatsion rivojlanish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmining quyidagi jihatlarini:

- davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning soliq, boj-tarif, moliya-kredit tizimini innovatsion rivojlanish modeli talablari va rivojlanish sur'atlariga zudlik bilan moslashtirish zarur;

- innovatsion mahsulot ishlab chiqarish sub'ektlariga xorijiy investorlar, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va davlat tashkilotlari soliqqa tortish, boj-tarif siyosatini qo'llash, kreditlashda alohida rag'batlantiruvchi yondashuv tizimini ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 29.12.2018y. № 271–272
2. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. - M.: Sosekgiz.1962. s..345.
3. Toshmatov Sh.A. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T: - 2008. 38-bet.
4. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: EKSMO, 2007.
5. Schumpeter J. The Theory of Economic Development/ Cambridge; Harvard University Press, 1934.
6. Kondratev N. D. Bolshie sikly kon'yunktury // Voprosy kon'yunktury. 1925. №
7. Gentry W. M., Hubbard G. R. "Success Taxes", Entrepreneurial Entry, and Innovation // NBER Working Paper. 2004. No 10551.
8. Rukovodstvo Oslo. Rekomendatsii po sboru i analizu dannykh po innovatsiyami / perevod s angl. 3-izd. M.: 2006. (Oslo Manual Guidelines for Collection and Interpretation of Innovation Data. Third ed. A Joint publication of OECD and Eurostat. OECD/EC.2005.
9. Gershman M. A. Innovatsionnyy menedjment. – M. : Market DS, 2010.
10. Shakirova, F. B. (2019). INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQLARNING AHAMIYATI. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8, 29-35.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T. : 2002. 169. B
12. Draker P.F. Innovatsii i predprinimatel'stvo.-M: 1992.- S. 234.
13. Dergunov A.I. Sistemnyy podxod k razvitiyu natsionalnoy innovatsionnoy sredy // Innovatsii, -№3. -2008. - S. 53-56.
14. A Study on R&D Tax Incentives Annex: Good practice cases. European Commission, 2014. 2. 2014 Global Survey of R&D Tax Incentives. Deloitte, March 2014
15. Nalogovoe stimulirovanie innovatsionnykh protsessov / Otv. red. N. I. Ivanova. M.: IMEMO RAN, 2009 [Tax Incentives for Innovations. Ed. by N. I. Ivanova., Moscow, IMEMO RAN, 2009. (In Russ.)].
16. Ivanova N.I. Nalogovoe stimulirovanie innovatsionnykh protsessov. M.: IMEMO RAN, 2009.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

